

PSIXOLOGIYA FANINING MAQSAD VA VAZIFALARI. ZAMONAVIY JAMIYATDAGI AHAMIYATI

Abdujalilov Abror Ulug'bek o'g'li

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Aniq fanlar fakultiti 1 - bosqich talabasi

abdujalilovabror2005@gmail.com

Ozodqulov Olimjon Bahodir o'g'li

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Psixologiya kafedrası o'qituvchisi ilmiy rahbar

olimjonozodqulov30@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17814505>

Annotatsiya: Ushbu mustaqil ishda psixologiya fanining asosiy maqsadi va vazifalari, uning nazariy va amaliy yo'nalishlari hamda zamonaviy jamiyatdagi ahamiyati yoritilgan. Maqolada psixik jarayonlarning rivojlanish qonuniyatlari, shaxsning individual xususiyatlarini o'rganish, diagnostika, korreksiya va prognozlash kabi psixologiya fanining muhim funksiyalari tahlil qilinadi. Shuningdek, ta'lim, tibbiyot, ishlab chiqarish, sport va oilaviy munosabatlar sohalarida psixologiya fanining o'rni ko'rsatib beriladi. Ish talabalarga psixologiya fanining mazmuni va amaliy ahamiyatini tushunishda yordam berish maqsadida tayyorlangan.

Kalit so'zlar: Psixologiya, psixik jarayonlar, xulq - atvor, motivatsiya, emotsional holat, psixikaning rivojlanishi, psixologiya maqsadi, psixologiya vazifalari, nazariy vazifalar, amaliy psixologiya, diagnostika, korreksiya, prognozlash, shaxs rivojlanishi, ijtimoiy muhit, ta'lim psixologiyasi, tibbiy psixologiya, sport psixologiyasi, oilaviy psixologiya.

Abstract: This independent work highlights the main goals and tasks of the field of psychology, its theoretical and practical directions, as well as its significance in modern society. The paper analyzes important psychological functions such as the laws of development of mental processes, the study of individual characteristics of the personality, diagnostics, correction, and forecasting. In addition, it presents the role of psychology in areas such as education, medicine, industry, sports, and family relations. The work is prepared to help students understand the essence and practical importance of psychology as a scientific.

Keywords: Psychology, mental processes, behavior, motivation, emotional state, development of the psyche, purpose of psychology, tasks of psychology, theoretical tasks, applied psychology, diagnostics, correction, forecasting, personality development, social environment, educational psychology, medical psychology, sports psychology, family psychology.

KIRISH

Psixologiya - bu inson va hayvonlarning psixik jarayonlari, holatlari hamda individual xususiyatlarini o'rganuvchi fan. Zamonaviy jamiyatda psixologiya fanining ahamiyati tobora ortib bormoqda, chunki inson omili har bir sohada yetakchi o'rinni egallaydi. Shaxsning xulq - atvori, fikrlashi, emotsional holati, motivatsiyasi va muomala jarayonini chuqur tushunish ijtimoiy taraqqiyot uchun muhimdir. Shu sababli maqsad va vazifalarini o'rganish talaba va mutaxassislar uchun dolzarb masalalardan biridir.

1. Psixologiya fanining asosiy maqsadi. Psixologiya fanining bosh maqsadi - inson psixikasining kelib chiqishi, rivojlanishi va faoliyat mexanizmlarini ilmiy asosda o'rganishdir. Bu maqsad quyidagi yo'nalishlar orqali amalga oshiriladi: Psixik jarayonlarning (idrok, tafakkur, xotira, diqqat) qonuniyatlarini aniqlash. Inson xulq - atvorining sabablarini

tushuntirish. Shaxsning individual xususiyatlari va temperamentini o'rganish. Psixik rivojlanishning yoshga oid bosqichlarini tahlil qilish. Insonning ijtimoiy muhitdagi xatti - harakatini ilmiy izohlash.

2. Psixologiya fanining asosiy vazifalari: Psixologiya fanining vazifalari juda keng bo'lib, ularni quyidagi guruhlariga ajratish mumkin: a) Nazariy vazifalar. Psixikaning tuzilishi va tarkibini ilmiy asoslas rivojlanishi, emotsional barqarorlikning o'sishi va ijtimoiy ko'nikmalarning paydo bo'lishi keyingi ta'lim bosqichlari uchun mustahkam poydevor yaratadi. Shuning uchun pedagoglar, ota-onalar va psixologlar mazkur yoshdagi rivojlanish qonuniyatlarini chuqur bilishi zarur. Psixik jarayonlar rivojlanishining umumiy qonuniyatlarini aniqlash. Xulq - atvor sabablarini tushuntiruvchi ilmiy nazariyalar yaratish

b) Amaliy vazifalar: Shaxsdagi psixologik muammolarni aniqlash va hal qilishga ko'maklashish. Ta'lim jarayonida o'quvchilar psixologik rivojlanishini qo'llab - quvvatlash. jarayonida xodimlarning psixologik holatini o'rganish. Oilaviy munosabatlar, konfliktologiya va kommunikatsiya sohalarida amaliy maslahatlar berish.

c) Diagnostik vazifalar: Test, anketa, suhbat, kuzatuv kabi metodlar yordamida shaxsning psixologik xususiyatlarini aniqlash. Emotsional holat, temperament, qobiliyat, qiziqishlarni baholash.

d) Korreksion (tuzatish) vazifalar; Psixik rivojlanishdagi kamchiliklarni bartaraf etish. Stress, qo'rquv, xavotir kabi holatlarni kamaytirish. Shaxsning ijtimoiy moslashuvini yaxshilash.

e) Prognostik vazifalar: Insonning kelajakdagi xulq - atvori va rivojlanish yo'nalishini taxmin qilish. Kasb tanlash, fanga qiziqish, shaxsiy rivojlanish bo'yicha prognoz berish.

3. Psixologiya fanining zamonaviy ahamiyati: Bugungi kunda psixologiya quyidagi sohalarida katta rol o'ynaydi: Ta'lim psixologiyasi - o'qitish samaradorligini oshirish. Tibbiy psixologiya - ruhiy salomatlikni qo'llab-quvvatlash. Ishlab chiqarish psixologiyasi - ishlab chiqarish jarayonini optimallashtirish. Sport psixologiyasi - sportchilarning ruhiy tayyorgarligini kuchaytirish. Oilaviy psixologiya - sog'lom oilaviy aloqalarni shakllantirish.h. Psixologiya fanining amaliy vazifalari uni kundalik hayotning zarur qismiga aylantiradi.

XULOSA

Psixologiya fanining asosiy maqsadi - inson psixikasini chuqur ilmiy tahlil qilish va uning rivojlanish qonuniyatlarini ochib berishdir. Uning nazariy, amaliy, diagnostik, korreksion va prognostik vazifalari jamiyat taraqqiyotiga xizmat qiladi. Zamonaviy psixologiya nafaqat ilmiy tadqiqotlar bilan, balki insonning kundalik hayotda uchraydigan muammolarini hal qilishda ham muhim o'rin tutadi. Shuningdek, psixologik bilimlar shaxsning har tomonlama rivojlanishiga, o'z - o'zini anglashiga va jamoadagi munosabatlarini yaxshilashga yordam beradi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Oefen.uz, "Psixologiya fanining predmeti, maqsadi va vazifalari". 2023
2. Javoblar.com, "Psixologiya nima? Fan predmeti, maqsad va vazifalari", 2025
3. G'.B. Shoumarov. Psixologiya. - Toshkent, 2018.
4. Z. Freud. Psixoanaliz asoslari. - Moskva, 2019.
5. R. Atkinson va boshqalar. Inson psixologiyasi. – Nyu - York, 2021.
6. A. V. Petrovsky. Umumiy psixologiya. - Moskva: Yurayt, 2020.

7. Ozodqulov Olimjon Bahodir o'g'li. (2024). Rahbar va xodim munosabatlarining boshqaruv jarayonidagi psixologik xususiyatlari. Образование наука и инновационные идеи в мире, 41(1), 110 - 113. Retrieved from <https://www.newjournal.org/index.php/01/article/view/12079>